UDK 930:004

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK SOHASINING 1924–1941-YILLARDAGI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: KOLLEKTIVLASHTIRISH, TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA NATIJALAR

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1924–1941 ГОДАХ: КОЛЛЕКТИВИЗАЦИЯ, СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF THE LIVESTOCK SECTOR IN UZBEKISTAN IN 1924–1941: COLLECTIVIZATION, STRUCTURAL CHANGES, AND OUTCOMES

Adashaliyev Azizbek Zafarjon o‘g‘li
E-mail: azizbekadashaliye1995@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada 1924-1941-yillarda O‘zbekiston hududida chorvachilik sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, sovet agrar siyosati ta’siri, kollektivlashtirish jarayonlari, chorva bosh sonining o‘zgarishi hamda urush arafasidagi holati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada chorvachilikning an’anaviy shakllaridan rejali xo‘jalik tizimiga o‘tish jarayonidagi muammolar va oqibatlar ochib beriladi.*

Аннотация. *В данной научной статье на основе источников анализируется социально-экономическое состояние животноводства на территории Узбекистана в 1924–1941 годах, влияние советской аграрной политики, процессы коллективизации, динамика поголовья скота и предвоенная ситуация. В исследовании раскрываются проблемы и последствия перехода от традиционных форм животноводства к плановой хозяйственной системе.*

Abstract. *This scholarly article analyzes, based on source materials, the socio-economic conditions of the livestock sector in the territory of Uzbekistan from 1924 to 1941, the impact of Soviet agrarian policy, the processes of collectivization, changes in livestock numbers, and the pre-war situation. The study reveals the problems and consequences of the transition from traditional forms of livestock farming to a planned economic system.*

Kalit so‘zlar: *chorvachilik, kollektivlashtirish, qishloq xo‘jaligi, sovet agrar siyosati, O‘zbekiston.*

Ключевые слова: *животноводство, коллективизация, сельское хозяйство, советская аграрная политика, Узбекистан.*

Keywords: *livestock farming, collectivization, agriculture, Soviet agrarian policy, Uzbekistan.*

Kirish. 1924-yilda O‘rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O‘zSSR) tashkil topdi. Bu siyosiy-hududiy o‘zgarish nafaqat ma’muriy chegaralarni belgilash bilan cheklanmadi, balki respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib kirdi. Milliy davlat sifatida yangi tashkil etilgan O‘zbekiston Sovet hokimiyati qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishiga, shuningdek, chorvachilikni modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator institutsional islohotlarni boshlab berdi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti agrar yo‘nalishga ega bo‘lib, aholining katta qismi qishloq joylarda yashardi. Qishloq aholisi uchun chorvachilik nafaqat daromad manbai, balki kundalik oziq-ovqatning asosiy ta’minotchisi edi. Chorvachilik, xususan qo‘y, qoramol va tuya boqish, hududning iqlim va geografik sharoitlariga moslashgan holda rivojlangan. Shu bilan birga,

O‘zSSR tashkil topgach, markaziy hukumatning agrar siyosati va kollektivlashtirish jarayonlari chorvachilik tizimiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mavjud xususiy fermer xo‘jaliklari bosqichma-bosqich kolxoz va sovxozlarga aylantirildi, bu esa chorvachilikni markazlashtirilgan reja asosida rivojlantirishga imkon yaratdi.

Shuningdek, yangi iqtisodiy siyosat doirasida chorvachilikning texnik jihozlanishi va genetika sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonlar nafaqat respublikaning ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga, balki chorva mahsulotlarini boshqa sovet respublikalariga yetkazishga ham yo‘l ochdi. Natijada, O‘zbekistonning agrar sektori va chorvachilik iqtisodiy va ijtimoiy hayotda markaziy o‘rin tutgan, aholining turmushi va rivojlanish strategiyasini belgilovchi asosiy tarmoqga aylandi.

Tarixan O‘zbekiston hududida chorvachilik yarim ko‘chmanchi va o‘troq shakllarda rivojlangan bo‘lib, tabiiy-iqlimiy sharoit, keng yaylov maydonlari hamda sug‘orma dehqonchilik hududlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Xususan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston hududlarida qo‘ychilik va qorako‘lchilik, Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasida esa qoramolchilik va sut chorvachiligi ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlangan edi. Chorvachilik mahsulotlari – go‘sht, sut, jun, teri va qorako‘l mahsulotlari nafaqat ichki ehtiyojni qondirgan, balki tashqi savdo va sanoat uchun xomashyo vazifasini ham bajargan**.**1924-yilda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topishi bilan respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan chorvachilik sohasi ham markazlashgan boshqaruv tizimiga bo‘ysundirildi. Chorvachilik O‘zbekiston aholisining muhim daromad manbai bo‘lib, ayniqsa qishloq joylarda oziq-ovqat xavfsizligi va xomashyo yetkazib berishda asosiy rol o‘ynagan. 1924–1941-yillar chorvachilik tarixida tub burilishlar davri sifatida xarakterlanadi.

1920–1930-yillarda amalga oshirilgan sovet agrar siyosati, xususan majburiy kollektivlashtirish, chorvachilikning an’anaviy shakllarini keskin o‘zgartirdi. Mazkur jarayonlar chorva bosh sonining qisqarishi, xo‘jalik yuritish usullarining o‘zgarishi va qishloq aholisining ijtimoiy ahvoliga ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘zbekistonda chorvachilik sohasining holati, tashkiliy tuzilmasi va undagi o‘zgarishlar, huquqiy va iqtisodiy asoslari, rivojlanish yo‘nalishlari, chorvachilikdagi mahsuldorlik, chorva mollari zooveterinariyasi, chorva naslini yaxshilash va undagi muammolar kabi masalalar tarix, iqtisod va qishloq xo‘jaligi fanlari doirasida tizimli ravishda o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston chorvachilik tarixini nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliy jihatlarini hisobga olgan holda chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Asosiy manbalarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari, SSSR Markaziy statistika boshqarmasi to‘plamlari hamda O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi hisobotlari tashkil etadi. Bu manbalar orqali respublikaning turli davrlardagi chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan siyosati, statistika ma’lumotlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va tashkiliy tuzilmalardagi o‘zgarishlar aniq tasvirlangan.

Tadqiqotda bir qator metodlar qo‘llanildi. Statistik tahlil metodi orqali chorva bosh sonidagi o‘zgarishlar dinamikasi, tarmoqlar bo‘yicha mahsuldorlik darajasi, hududiy farqlar va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar batafsil o‘rganildi. Shu bilan birga, qiyosiy metod yordamida kollektivlashtirishdan oldingi va keyingi holat solishtirildi, xususiy xo‘jaliklar va kolxoz-sovxoz tizimlari o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, muammoga tarixshunoslik yondashuvi qo‘llanilib, mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va tadqiqot maqolalari tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali chorvachilik sohasidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar tarixiy kontekstda baholandi. Shu bilan birga, o‘rganishlar orqali respublika chorvachiligining uzun muddatli rivojlanish yo‘nalishlari, strategik ahamiyati, muammolar va rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanib, chorvachilikni yanada samarali boshqarish va modernizatsiya qilish uchun ilmiy asos yaratildi.

Muhokama va natijalar. Milliy-hududiy chegaralanishidan keyin agrar o‘zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi, 1924–1935- yillarda qishloq xo‘jaligida o‘lkaning mehnat qilishga layoqatli bo‘lgan aholining 85%i band edi. [1.326]. 1925-1930-yillarda sovet hokimiyati tomonidan O‘zbekistonda chorvachilikning rivojlantirishning ikki yo‘li muhokama qilindi. Bularning birinchisi chorvachilik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar hamda zotli mollarni ko‘paytirish masalasiga qaratilgan bo‘lib, bu davrda O‘zbekistonda bir qator ilmiy-tadqiqot stansiyalari va chorvachilik tajriba xo‘jaliklari tashkil etildi, jo‘xori, qand lavlagi kungi ozuqa ekinlari ekish keng joriy qilindi[2. 48]. Xususan, suv ta’minoti va yaylov infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, shuningdek, chorva mollari uchun yangi og‘ilxonalar va veterinar xizmatlar tarmo‘qi kengaytirildi.

1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topgach, agrar sohada tub institutsional o‘zgarishlar boshlandi. 1924–1928-yillar chorvachilikda nisbatan evolyutsion bosqich bo‘lib, bu davrda an’anaviy yarim ko‘chmanchi va o‘troq chorvachilik tizimi saqlanib qoldi. Respublikada chorvachilik asosan uch shaklda mavjud edi:

- yarim ko‘chmanchi qo‘ychilik;
- dehqon xo‘jaliklaridagi qoramolchilik;
- yaylov chorvachiligi (cho‘l hududlarida).

1920-yillarning o‘rtalarida respublika qishloq xo‘jaligida chorvachilik ulushi yalpi agrar mahsulotning sezilarli qismini tashkil etgan. Ayniqsa, qo‘ychilik (qorako‘lchilik) eksportbop tarmoq sifatida markaz uchun strategik ahamiyat kasb etgan. Buxoro va Qashqadaryo hududlarida qorako‘l terisi yetishtirish ittifoq miqyosida muhim valuta manbai bo‘lgan.

Chorvachilikni rivojlantirishning ikkinchi yo‘li sifatida chorvalarni boqishda go‘sht va sut mahsulotlarini oshirishga yordam beradigan yangi usullardan foydalanish masalasi muhokama qilingan. Bu borada mahalliy zotlarni yaxshilash va yangi ozuqa aralashmalaridan foydalanish amaliyotga tatbiq etildi. Sutni saqlash va qayta ishlashning dastlabki sanoat usullari joriy qilindi, bu esa mahsulot sifatini oshirishga olib keldi[3. 140]. Bundan tashqari, chorvachilik sohasidagi eksport masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Bunda sovet hokimiyati chorvaga alohida tovar sifatida qarashni boshlagan hamda bu yo‘nalishni iqtisodiyot va sanoatdagi o‘rinlarini oshirishga harakat qilgan. Xususan, qo‘y juni, terisi va qoramol go‘shtini markaziy Rossiya va xalqaro bozorga chiqarishga qaratilgan tashkiliy choralar ko‘rildi. Shuningdek, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan O‘zbekistonda chorvachilik ikkinchi darajali, ammo muhim tarmoq sifatida rag‘batlantirildi, chunki u paxtachilikka organik o‘g‘it manbai bo‘lib xizmat qildi va dehqon xo‘jaliklarining turli daromad manbalariga ega bo‘lishiga yordam berdi.

Mamlakat siyosiy rahbariyati kooperativ harakatni avj oldirishni dehqon xo‘jaliklarini “sotsialistik rivojlanish” yo‘liga o‘tkazishning eng ta’sirchan vositasi deb hisobladi. Shu maqsadda 1928-yilning oktabrida “Chorvaittifoq” kooperatsiyasi tashkil etildi. Ushbu kooperatsiya chorvachilik sohasida xususiy tadbirkorlikni bosqichma-bosqich jamoa va davlat tizimiga integratsiya qilish, chorva resurslarini markazlashtirish va ishlab chiqarishni rejalashtirishga xizmat qiladigan bir vosita sifatida ko‘rilgan edi. Shu yilning oxiriga kelib, respublika bo‘yicha chorvachilikdagi bunday shirkatlar soni 205 tani tashkil qilgan, bu esa dastlabki yillarda kooperativ harakatning jadal sur’atda rivojlanganidan dalolat beradi.

1929-yildan boshlab SSSR miqyosida boshlangan majburiy kollektivlashtirish siyosati O‘zbekiston chorvachiligiga ham keskin ta’sir ko‘rsatdi. Dehqon xo‘jaliklarining kolxoz va sovxozlarga birlashtirilishi jarayonida chorva mollari davlat va jamoa mulkiga o‘tkazildi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy sohalarda ham keskin o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Ko‘plab chorvadorlar, ayniqsa xususiy xo‘jaliklar egasi bo‘lganlar, bu o‘zgarishlarga qarshi norozilik bildirdi. Natijada ayrim hududlarda chorva boshining keskin kamayishi kuzatildi, bu esa oziq-ovqat ta’minoti va agrar ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, kooperativlar va kolxoz-sovxoz tizimining tashkil etilishi, uzoq muddatda, chorvachilikni markazlashtirish, rejalashtirish va ilmiy asosda rivojlantirish uchun zarur poydevor yaratdi. Kooperativ harakat orqali naslchilik, ozuqa yetkazib berish, veterinariya va texnik

jihozlash kabi sohalar tartibga solindi. Bu esa, qiyinchiliklarga qaramay, chorvachilikni keyingi yillarda sanoatlashgan tizimga aylantirish imkonini berdi.

Natijada, 1928–1930-yillarda O‘zbekistonda chorvachilik sohasidagi o‘zgarishlar murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida namoyon bo‘ldi: qisqa muddatli inqiroz va noroziliklar uzoq muddatli tizimli o‘zgarishlarning boshlang‘ich bosqichi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu davr chorvachilikni nafaqat iqtisodiy, balki strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqqa aylantirish yo‘lidagi muhim qadam sifatida baholanishi mumkin.

Kollektivlashtirishning dastlabki yillarida boshqaruv tajribasining yetishmasligi, oziqa bazasining sustligi va rejalashtirishdagi xatolar tufayli chorvachilik samaradorligi pasaydi. Natijada 1930 – 1933-yillarda chorva bosh soni sezilarli darajada qisqardi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti chorvachilik bo‘yicha komissiyasining 1931-yil 4-apreldagi qarori bilan mavjud 22 ta chorvador rayonlardagi jami 1 724 400 bosh chorva hayvoni musodara qilinib, kolxoz va sovxozlar ixtiyoriga berilgan.[4. 16]

1930-1940-yillarda davlat kooperativ xo‘jaliklari, kolxozlar, kolxozchilar, yakka tatibdagi xo‘jaliklar hamda ishchi va xizmatchilar chorva mollarini boqish bilan shug‘ullangan. Chorva bilan shug‘ullanadigan asosiy guruh chorvadorlar bo‘lgan bo‘lib, yirik shoxli chorvalar, qo‘y hamda echkilarni yetishtirishda asosiy o‘rin tutgan. Boshqa tomondan esa otning asosiy qismi kolxozlarda boqilgan bo‘lib, yakka tartibdagi kolxozchi yoki ishchilarning ulushi bu sohada ancha kam bo‘lgan. Shuningdek, kolxozlar yirik shoxli chorva, qo‘y va echkilarni yetishtirishda ham yetakchi o‘rinlardan birida turgan. Davlat kooperativ xo‘jaliklari chorva yetishtirish bo‘yicha boshqa guruhlarga qaraganda orqada bo‘lgan. 1935-1940-yillarda respublikada chorvachilikka ixtisoslashtirilgan bir qancha sovxozlar tashkil topgan. Xususan, Buxoro viloyati Beshkent tumanidagi “Oxunboboyev”, Koson tumanidagi “Budyoniy”, Namangan viloyati Pop tumanidagi “Yangi chorva”, Samarqand viloyati Paxtakor tumanidagi “Qizil chorva” hamda Toshkent viloyatidagi “Frunze” kabi sovxozlar shular jumlasidan hisoblanadi [5. 25].

Xulosa. 1924–1941-yillarda O‘zbekistonda chorvachilik sohasi tubdan o‘zgarishlarga uchradi. Sovet agrar siyosati doirasida amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish jarayoni an’anaviy chorvachilik tizimini yo‘q qilishga olib keldi. Bu jarayon dehqonlar va chorvachilik bilan shug‘ullangan oilalar uchun keskin ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Shaxsiy xo‘jaliklar asta-sekin kolxozlar va sovxozlar tarkibiga qo‘shildi, bu esa chorva mahsulotlarining markazlashgan tarzda ishlab chiqarilishini ta’minlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot stansiyalarining tashkil etilishi, naslchilik ishlariga e’tibor qaratilishi, ozuqa bazasini kengaytirish, chorvachilik infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi ijobiy chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Bular chorvachilikni professional va samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi. Ammo 1930–1933-yillarda rejalashtirishdagi xatolar, markaziy boshqaruvning samarasizligi, shuningdek, dehqonlarning kollektivlashtirishga qarshi noroziligi tufayli chorva soni keskin kamaydi. Bu davr ko‘plab iqtisodiy inqirozlar va qiyinchiliklarga guvoh bo‘ldi, chorvachilik ishlab chiqarishi qisqa muddatli pasayishga uchradi.

Chorvachilik sohasi asta-sekin ikki asosiy yo‘nalishda rivojlana boshladi. Kolxozlar va sovxozlar asosiy ishlab chiqaruvchi tuzilmalarga aylantirildi, shaxsiy xo‘jaliklar esa yordamchi rolni bajarishga majbur qilindi. Otchilik butunlay davlat nazoratiga o'tkazildi, qo‘ychilik va qoramolchilik esa paxtachilik bilan o'zaro bog‘liq holda rivojlantirildi. Bu bog‘liqlik agrar sektorning bir butun sifatida rejalashtirilishini va resurslarni samarali taqsimlashni maqsad qilgan edi.

1930-yillarning oxiriga kelib, chorvachilik sohasi strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Urush arafasida u mamlakat mudofaa va oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan tarmoqqa aylandi. Chorvachilikning sanoatlashgan, markazlashtirilgan tizimga o‘tishi jarayoni boshlanib, uzoq muddatda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kompleks rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda chorvachilikning an’anaviy shakllari asta-sekin zamonaviy texnologiya, ilmiy asoslangan naslchilik va ozuqa tizimlari bilan uyg‘unlashdi.

Natijada, 1924–1941-yillarda O‘zbekiston chorvachiligi murakkab rivojlanish yo‘lidan o‘tdi: qisqa muddatli inqirozli vaziyatlar uzoq muddatli tizimli o‘zgarishlar bilan birga kechdi, bu esa respublikaning agrar sektori va chorvachilikning keyingi o‘n yilliklarda barqaror va samarali rivojlanishiga asos soldi. Ushbu davr chorvachilikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan soha sifatida shakllantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. //Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; Таҳрир ҳайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ./. – Т.: «Шарқ», 2000. – Б. 326.

2. Abdurahmonov, J. O‘zbekistonda chorvachilikning rivojlanishi (1920-1930-yillar). Toshkent: Fan, 2005. – B. 48.

3. Petrov, A. V. Sovet davrida chorvachilik texnologiyalari. Moskva: Kolos, 1974. – B. 140.

4. Абдуллаев М. Ўзбекистонда советларнинг «қулоқ қилиш» сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. Тарих фанлари номзоди... диссертация автореферати.-Тошкент, 2002 – Б. 16.

5. Джураев Р. Ўзбекистонда чорвачилик аҳволи ва муаммолари (1917-1941 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. Б. 25.